Abstract: This scientific article analyzes the reforms of the education system in the Republic of Uzbekistan after independence and examines the role of the "Upbringing" subject in the formation of learners' moral and spiritual character. Particular attention is given to national spiritual values and the rich scholarly and pedagogical heritage of ancestors, especially the educational potential of Hadith studies. The interrelation between the Qur'an and Hadith, as well as the contributions of prominent scholars such as Imam al-Bukhari, Imam al-Tirmidhi, Imam Muslim, Imam Abu Hanifa, and Imam al-Maturidi, are discussed in the context of moral education. The article also highlights the strategic importance of the "Upbringing" subject in developing spiritual immunity among young people against ideological challenges in the era of globalization.

Key words: Upbringing subject, Hadith studies, moral and spiritual upbringing, national values, Imam al-Tirmidhi, pedagogical heritage.

Аннотация: В данной научной статье анализируются процессы реформирования системы образования в Республике Узбекистан в период после обретения независимости, а также место и значение предмета "Воспитание" в формировании духовно-нравственной личности. Особое внимание уделяется национально-духовным ценностям и богатому научно-воспитательному наследию предков, в частности педагогическому потенциалу науки хадиса. Раскрывается взаимосвязь Корана и хадисов, вклад выдающихся мухаддисов – Имама аль-Бухари, Имама ат-Тирмизи, Имама Муслима, а также значение идей Имама Абу Ханифы и Имама Матуриди в системе нравственного воспитания. В статье обосновывается роль предмета "Воспитание" в формировании у молодежи духовного иммунитета и устойчивости к идеологическим угрозам в условиях глобализации.

Ключевые слова: предмет "Воспитание", хадисы, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, Имам ат-Тирмизи, педагогическое наследие.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi mamlakat hayotining barcha sohalarida tub burilish yasadi. Ayniqsa, ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida ta'lim mazmunini yangilash, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu jarayonda "Tarbiya" fani yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim vositasi sifatida shakllandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotida ma'naviyat hal qiluvchi o'rin tutadi: iqtisodiyot jamiyat tanasi bo'lsa, ma'naviyat uning yuragi va qalbidir. Shu bois yoshlarni tarbiyalash masalasi "tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya" tamoyili asosida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi ^[1].

Amerikada istiqomat qilayotgan turkistonliklar assotsiatsiyasi prezidenti A. Xojaning ta'kidlashicha, O'zbekistonda davlat tomonidan barcha diniy konfessiyalarning madaniy-tarixiy o'ziga xosliklari va an'anaviy qadriyatlarini asrab-avaylash hamda rivojlantirishga teng darajada e'tibor qaratilmoqda. Uning fikriga ko'ra, turli diniy konfessiyalarning teng huquqli va to'laqonli faoliyat yuritishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar mamlakatning muhim ijobiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, u O'zbekistonda dinlararo va madaniyatlararo muloqotning yuqori darajada yo'lga qo'yilganini alohida qayd etib, ushbu holat mamlakatni bag'rikenglik tamoyillari ustuvor bo'lgan jamiyat sifatida baholash imkonini berishini ta'kidlaydi [2].

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek: "Shak-shubhasiz, mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan salmoqli yutuqlar barchamizni bo'lib, ularni hech kim bizdan tortib olmaydi. Ayni paytda bugun oldimizda turgan muhim va dolzarb vazifalar o'tgan davr mobaynida barpo etilgan salohiyatdan oqilona foydalanish, mavjud kuch-qudratimiz, imkoniyat va sa'y-harakatlarimizni ertangi istiqbolimiz hamda ezgu orzu-niyatlarimizni ro'yobga chiqarish yo'lida safarbar etishni talab etadi" [3].

Ko'rinib turibdiki, tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq mavjud bo'lmaganidek, mafkura sohasida ham bunday holatga yo'l qo'yilmasligi zarur. Ayniqsa, bugungi kunda dunyoda, jumladan, axborot makonida globallashuv jarayonlari jadal kechayotgan sharoitda ushbu masalaning dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Chunki hozirgi davrda jahonning istalgan nuqtasida sodir bo'layotgan voqea-hodisalar qisqa fursat ichida keng hududlarga tezkor tarqalmoqda. Mazkur holat mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi [4, 33-34].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur tadqiqot mavzusi doirasida milliy-ma'naviy tarbiya, hadis ilmi va ularning pedagogik integratsiyasiga oid ilmiy qarashlar turli manbalarda keng yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o'z nutqlarida ma'naviy tarbiyani jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholab, "tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya" tamoyilini ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishi sifatida ilgari suradi.

Bundan tashqari, I. A. Karimov asarlarida yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ruhda shakllantirish masalalari alohida ta'kidlangan. "Barkamol avlod orzusi" asarida esa yosh avlodni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashning konseptual asoslari bayon etilgan.

Hadis ilmining pedagogik jihatlari esa buyuk muhaddislar – Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy va Imom Muslim asarlarida o'z aksini topgan bo'lib, ularning ilmiy merosi shaxs tarbiyasida axloqiy me'yorlarni shakllantirishda muhim manba sifatida qaraladi. Shuningdek, Imom Moturidiy va Imom A'zam Abu Hanifa qarashlarida diniy va ma'naviy tarbiyaning nazariy asoslari ishlab chiqilgan.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda milliy qadriyatlar va diniy merosni ta'lim tizimiga integratsiya qilish masalasi dolzarb yo'nalish sifatida ko'rilmogda. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yaratilgan "Tarbiya" fani darsliklarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda milliy meros va hadislarning didaktik imkoniyatlari keng yoritilgan.

Shu bilan birga, dinlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqotga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar O'zbekiston tajribasida bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida baholanadi. Bu esa "Tarbiya" fanini mazkur yo'nalishlar bilan uyg'unlashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan kompleks va tizimli yondashuv asosida olib borildi. Ilmiy izlanish jarayonida tarixiy-tahliliy metod yordamida O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyingi davrda ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, xususan, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning rivojlanish bosqichlari o'rganildi.

Manbashunoslik metodi orqali Qur'oni Karim, hadislar majmualari, jumladan, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy va Imom Muslim asarlari, shuningdek, klassik hamda zamonaviy pedagogik manbalar tahlil qilindi.

Qiyosiy-pedagogik yondashuv asosida milliy tarbiya an'analari va zamonaviy pedagogik konsepsiyalar o'zaro solishtirilib, ularning "Tarbiya" fani mazmunidagi uyg'un jihatlari aniqlandi.

Tizimli-tahliliy metod yordamida hadislarning shaxs ma'naviy kamolotiga ta'sir mexanizmlari, ularning axloqiy, ijtimoiy va tarbiyaviy funksiyalari kompleks tarzda yoritildi.

Shuningdek, tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, ta'lim sohasiga oid davlat dasturlari, Prezident nutqlari hamda konseptual qarashlar tahlil qilinib, ularning "Tarbiya" fanini rivojlantirishdagi metodologik ahamiyati asoslab berildi.

Mazkur metodlar uyg'unligi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi hamda xulosalarning ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot natijalari “Tarbiya” fanini milliy-ma’naviy meros va hadislar asosida tashkil etishning pedagogik samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi.

Mustaqillik davrida ta’lim va tarbiya masalalarining rivoji. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, mustaqillikdan keyingi davrda O’zbekiston ta’lim tizimida tarbiya masalasi alohida strategik yo’nalish sifatida shakllandi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda so’nggi yillardagi ta’lim islohotlari doirasida “Tarbiya” fanining mazmuni tubdan yangilanib, unga milliy-ma’naviy qadriyatlar, tarixiy xotira va hadisiy-ma’rifiy meros izchil integratsiya qilindi. Ushbu jarayon yosh avlodda fuqarolik mas’uliyati, milliy o’zlik hamda ma’naviy barqarorlikni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Empirik va manbashunoslik tahlillari shuni ko’rsatdiki, tarbiya jarayonida milliy merosga tayangan yondashuv o’quvchilarning axloqiy qarashlari, ijtimoiy faolligi hamda hayotiy pozitsiyasiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Ayniqsa, tarixiy adolatni tiklash, ajdodlar merosini xolis yoritish va uni zamonaviy ta’lim mazmuni bilan uyg’unlashtirish “Tarbiya” fanining samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo’ldi.

Hadis ilmining pedagogik imkoniyatlari. Tahlil natijalariga ko’ra, hadislar shaxsning ma’naviy-axloqiy kamotini shakllantirishda muhim pedagogik manba hisoblanadi. Qavliy, amaliy va taqriiy sunnatlar tarbiya jarayonida axloqiy me’yorlar, ijtimoiy xulq-atvor hamda shaxsiy mas’uliyatni o’rgatishda samarali didaktik vosita vazifasini bajaradi.

Masalan, niyatga oid hadislar o’quvchilarda ongli faoliyat yuritish, mas’uliyatli qaror qabul qilish va ichki nazorat mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Shuningdek, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy va Imom Muslim kabi buyuk muhaddislar tomonidan ishlab chiqilgan hadislarini tekshirish hamda tasniflash metodologiyasi “Tarbiya” fanida tanqidiy fikrlash, manbaga nisbatan ehtiyotkorlik va ilmiy xolislikni shakllantirish uchun muhim metodik asos bo’la olishi isbotlandi.

Mafkuraviy barqarorlik va ma’naviy immunitetni shakllantirish. Natijalar shuni ko’rsatdiki, globallashuv va axborot oqimlarining keskin kuchayishi sharoitida yoshlarni turli zararli g’oyalardan ekstremistik ta’sirlardan himoyalash dolzarb vazifalardan biridir. “Tarbiya” fanida hadislarining pedagogik talqini yoshlarning mafkuraviy barqarorligini ta’minlash hamda ularda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo’ldi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni tasdiqladiki, hadislar asosida olib borilgan tarbiyaviy mashg’ulotlar o’quvchilarning ma’naviy qadriyatlarga munosabatini mustahkamlaydi, diniy bag’rikenglik va ijtimoiy totuvlik g’oyalarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, “Tarbiya” fanini milliy-ma’naviy meros va hadislar asosida tashkil etish zamonaviy ta’lim tizimi uchun nafaqat maqsadga muvofiq, balki strategik ahamiyatga ega. Global axborot makonida mafkuraviy bo’shliq yuzaga kelish ehtimoli ortib borayotgan sharoitda ta’lim tizimi, xususan, tarbiyaviy fanlar ushbu bo’shliqni ijobiy, ilmiy asoslangan hamda milliy qadriyatlarga tayangan mazmun bilan boyitishi lozim.

- *Birinchidan*, hadislarining pedagogik talqini shaxs tarbiyasida nazariy bilim bilan amaliy xulq-atvor o’rtasidagi uzviy bog’liqlikni ta’minlaydi. Qavliy sunnatlar orqali axloqiy me’yorlar aniq shaklda bayon etilsa, amaliy sunnatlar ushbu me’yorlarning real hayotdagi namunasini ko’rsatadi. Taqriiy sunnatlar esa ijtimoiy muhitda mustaqil qaror qabul qilish, vaziyatni to’g’ri baholash hamda mas’uliyatli tanlov qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Bu jihat “Tarbiya” fanining kompetensiyaviy yondashuviga to’liq mos keladi.
- *Ikkinchidan*, hadis ilmi asosida olib borilgan tarbiya jarayoni yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlashda muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Ekstremistik va radikal g’oyalarning ko’pincha diniy tushunchalarni noto’g’ri talqin qilish orqali yoyilishi inobatga olinsa, ishonchli manbalarga tayangan hadis ilmini o’rgatish tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa yoshlarni manipulyativ axborot va soxta mafkuralardan himoyalashning samarali pedagogik mexanizmi hisoblanadi.
- *Uchinchidan*, buyuk muhaddislar va mutafakkirlar – Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Muslim, Imom Moturidiy va Imom A’zam Abu Hanifa qarashlarining tarbiya jarayoniga integratsiyasi ta’limning tarixiy uzviyligini ta’minlaydi. Ularning ilmiy-metodologik yondashuvlari nafaqat diniy, balki umuminsoniy axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilgan. Ushbu meros “Tarbiya” fanida milliy o’zlikni anglash, tarixiy xotira hamda ma’naviy mas’uliyat tushunchalarini chuqurlashtiradi.
- *To’rtinchidan*, Birinchi Prezident I. A. Karimov hamda amaldagi Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev nutqlarida ilgari surilgan ma’naviy tarbiya haqidagi konseptual g’oyalardan mazkur tadqiqot natijalari bilan mushtarakdir. Xususan, “tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya” tamoyili ta’lim tizimida ustuvor metodologik prinsip sifatida namoyon bo’ladi. Ushbu tamoyil “Tarbiya” fanining mazmunini ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik mas’uliyati hamda ma’naviy yetuklik bilan uzviy bog’laydi.

- *Beshinchidan*, global miqyosdagi axborot va ma'lumotlar oqimining kengayishi yoshlarni turli mafkuraviy, g'oyaviy va diniy ta'sirlardan himoya qilish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Hozirgi sharoitda dunyoning turli hududlarida sodir bo'layotgan voqea va jarayonlarning tezkor tarqalishi natijasida ayrim yoshlar turli axborot ta'sirlariga duch kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, "Tarbiya" fanida hadislarini pedagogik talqin qilish yoshlarni nafaqat axloqiy, balki intellektual hamda ruhiy jihatdan mustahkamlashning samarali vositasi hisoblanadi.
- *Oltinchidan*, tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ayrim zararli oqimlar yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatish orqali ularning ijtimoiy va ma'naviy rivojiga putur yetkazishi mumkin. Masalan, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda faoliyat yuritgan "AUM Senrikyo" kabi diniy harakatlar ayrim yoshlarni manipulyativ ta'sir ostiga olib, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bunday holatlar yoshlarning mustahkam ma'naviy tayanchga ega bo'lishining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.
- *Yettinchidan*, O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy muhiti o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ko'plab mamlakatlarda diniy va madaniy faoliyatni tashkil etishda turli tartibga solish mexanizmlari mavjud bo'lsa-da, O'zbekistonda barcha dinlarning madaniy-tarixiy o'ziga xosligi hamda an'anaviy qadriyatlarini asrab-avaylash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Amerika turkistonliklari assotsiatsiyasi prezidenti A. Xojaning ta'kidlashicha, "turli diniy konfessiyalarning teng huquqli va to'laqonli faoliyat yuritishi uchun O'zbekistondagi kabi sharoit jahonning ko'plab mamlakatlarida mavjud emas". Bu esa yoshlarni ma'naviy jihatdan barkamol, bag'rikeng hamda tolerant shaxslar sifatida tarbiyalash uchun muhim pedagogik imkoniyat yaratadi.

Sakkizinchidan, tarixiy meros va klassik hadis ilmi pedagogik jihatdan yoshlarning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shadi. Payg'ambarimiz Muhammad (alayhissalom)ning qavliy (so'z), amaliy (amal) va taqiriy (ma'qullash) sunnatlari axloqiy hamda ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim namuna sifatida xizmat qiladi. Masalan, "Albatta, amallar niyatga bog'liqdir", degan hadis shaxsni mas'uliyatli bo'lishga, harakatlarining natijasini anglashga va ongli qarorlar qabul qilishga undaydi. Shuningdek, Xolid ibn Valid (roziyallohu anhu)ning tayammum bilan namoz o'qishi va Payg'ambarimiz (alayhissalom) tomonidan ushbu amalning ma'qullanishi yoshlar uchun pragmatik va axloqiy namuna sifatida talqin etiladi.

To'qqizinchidan, ajdodlarimiz – Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Muslim, Imom Moturidiy, Al-Farobiy, Ibn Sino va boshqa ulug' allomalarning ilmiy hamda tarbiyaviy merosi "Tarbiya" fanining metodologik poydevorini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu meros yoshlarni axloqiy, ijtimoiy va ruhiy jihatdan tarbiyalashda tizimli yondashuvni ta'minlab, ularda tanqidiy fikrlash, adolatga sodiqlik hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'ninchidan, "Tarbiya" fanini milliy-ma'naviy meros va hadislar bilan boyitish yoshlarning global miqyosdagi tahdidlarga nisbatan barqaror pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy jarayonda Qur'oni Karim va hadislarini uyg'un holda o'rgatish shaxsning axloqiy qarashlari va dunyoqarashini mustahkamlash bilan birga, jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'n birinchidan, pedagogik jarayonda hadislarining didaktik talqini yoshlar ongida ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi, ularda bag'rikenglik, xayriya hamda adolatga hurmat kabi qadriyatlarni mustahkamlaydi. Bu jarayon yoshlarni ma'naviy jihatdan barkamol, demokratik qadriyatlarga sodiq va jamiyat hayotida faol shaxslar sifatida shakllantiradi.

O'n ikkinchidan, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, erishilgan yutuqlar barchaning umumiy boyligi bo'lib, ulardan oqilona foydalanish, mavjud imkoniyatlarni ertangi istiqbol va ezgu orzu-niyatlarni ro'yobga chiqarishga yo'naltirish muhimdir. Bu esa yoshlarni tarbiyalash hamda ta'lim tizimida izchil strategik yondashuvni talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, "Tarbiya" fanini milliy-ma'naviy meros va hadislar asosida rivojlantirish yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga, shuningdek, jamiyatning barqaror taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik jarayonlar ilmiy asoslangan va tizimli tarzda tashkil etilganda, ular nafaqat axloqiy barkamollikni shakllantiradi, balki yoshlarning global tahdidlarga nisbatan mustahkam ma'naviy pozitsiyasini qaror toptiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mustaqil O'zbekiston sharoitida "Tarbiya" fanini milliy-ma'naviy meros va hadislar asosida rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni ma'naviy barkamol, axloqiy qadriyatlarga sodiq hamda ijtimoiy mas'uliyatni anglaydigan shaxs sifatida tarbiyalashda hadis ilmining pedagogik imkoniyatlari beqiyosdir. Payg'ambarimiz Muhammad (alayhissalom) ning qavliy, amaliy va taqiriy sunnatlari shaxs tarbiyasida nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy hamda ruhiy me'yor sifatida muhim namuna bo'lib xizmat qiladi.



Bundan tashqari, ajdodlarimiz – Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Muslim, Imom Moturidiy, Al-Farobiy va Ibn Sino kabi buyuk allomalarning ilmiy hamda tarbiyaviy merosi “Tarbiya” fanining metodologik poydevorini shakllantiradi. Ularning pedagogik qarashlari yoshlar ongida tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, adolat va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, hadislar va milliy-ma’naviy merosni ta’lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish shaxsiy hamda jamiyat darajasida ijobiy natijalar beradi.

Globalashuv sharoitida yoshlar turli axborot va g’oyaviy ta’sirlarga duch kelishi ehtimoli ortib bormoqda. Shu bois “Tarbiya” fanida hadislarining pedagogik talqini yoshlarning nafaqat axloqiy barqarorligini, balki ruhiy immunitetini shakllantirish, bag’rikenglik va ijtimoiy mas’uliyatni mustahkamlash, shuningdek, tanqidiy hamda analitik fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, davlat siyosatining strategik yo’nalishlari, xususan, Birinchi Prezident I. A. Karimov ta’kidlaganidek, erishilgan yutuqlardan oqilona foydalanish hamda mavjud salohiyatni yoshlar tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotiga yo’naltirish zaruriyati ta’lim tizimining milliy-ma’naviy qadriyatlar asosida rivojlanishini yanada kuchaytiradi. Shu ma’noda, “Tarbiya” fanini milliy meros va hadislar bilan boyitish nafaqat shaxsni, balki jamiyatni ham ma’naviy barkamollikka yo’naltiradi.

Shuningdek, dinlararo va madaniyatlararo muloqotning rivojlanganligi yoshlarni global axborot maydonida tez tarqaluvchi turli g’oyalarga nisbatan ongli munosabatda bo’lishga undaydi hamda ularni sog’lom, barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Amerika va Yevropadagi turkistonliklar assotsiatsiyasi prezidenti ta’kidlaganidek, O’zbekiston sharoiti yoshlarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasini amalga oshirish uchun qulay muhitlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Shu bilan birga, “Tarbiya” fanini rivojlantirish jarayonida pedagogik jarayonni ilmiy asoslash, tarixiy va diniy manbalarni tizimli integratsiya qilish, yoshlarning tanqidiy fikrlash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Qur’oni Karim va hadislar uyg’unligida o’qitish shaxsni axloqiy va ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga, ularni global tahdidlarga nisbatan barqaror dunyoqarash bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, “Tarbiya” fanini milliy-ma’naviy meros va hadislar asosida rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ijtimoiy, ma’naviy hamda pedagogik samaradorligini oshiradi. Ushbu yondashuv yoshlarni nafaqat axloqiy barkamol, balki jamiyat hayotida faol, tanqidiy fikrlovchi hamda global va milliy tahdidlarga nisbatan barqaror pozitsiyaga ega shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois hadis ilmi va milliy-ma’naviy merosni “Tarbiya” faniga integratsiya qilish O’zbekiston ta’lim siyosatining muhim strategik yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dini-mizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so’zlagan nutqi. – <https://president.uz/oz/lists/view/649> (15.06.2017).
2. “Dinlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqot: O’zbekiston tajribasi” mavzusiga bag’ishlangan konferensiya materiallari. – Nyu-York: “Jahon” AA // Xalq so’zi. – 2007-yil, 11-oktyabr. – № 201 (4354).
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 16 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so’zi // Ma’rifat. – 2007-yil, 1-sentyabr. – № 70 (7991).
4. Barkamol avlod orzusi / nashr uchun mas’ul: T. Risqiyev; tuzuvchilar: Sh. Qurbonov, H. Saidov, R. Ahlidinov. – T.: Sharq, 1999. – 181 b.
5. Tarbiya fani: baxt va muvaffaqiyat sirlari. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 7-sinf o’quvchilari uchun darslik. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.